

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

KUZIYEV BEKZOD NASRIDDINOVICH

**TOZALASH AGREGATIDA AJRALIB CHIQAYOTGAN MAYDA VA YIRIK
IFLOSLIKLARNI ALOHIDA TAQSIMLASH JARAYONINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish**

**texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническом наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Kuziyev Bekzod Nasriddinovich

Tozalash agregatida ajralib chiqayotgan mayda va yirik iflosliklarni alohida taqsimlash jarayonini takomillashtirish..... 3

Кузиев Бекзод Насриддинович

Совершенствование процесса отдельного распределения мелких и крупных сорных примесей, выделяющихся в агрегате очистки.... 23

Kuziyev Bekzod Nasriddinovich

Improvement of the process of separate distribution of small and large impurities released in the purification unit..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 48

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

KUZIYEV BEKZOD NASRIDDINOVICH

**TOZALASH AGREGATIDA AJRALIB CHIQAYOTGAN MAYDA VA YIRIK
IFLOSLIKLARNI ALOHIDA TAQSIMLASH JARAYONINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish**

**texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/T4474 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ttesi.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Parpiyev Azimjon

texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Jumaniyazov Qadam Jumaniyazovich

texnika fanlari doktori, professor

Mamatqulov Orifjon Tursunovich

texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil ---- soat ----- dagi majlisida bo'lib o'tadi.(Manzil:100100,Toshkentsh.,Shohjahon-5,tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, faks: 253-36-17; e-mail: pochta@ttesi.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiyasi ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (201-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil - ---- kuni tarqatildi.

(2024 yil - ----- 201-raqamli reyestr bayonnomasi).

X.H.Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z.Mamatov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

SH.SH.Xakimov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda paxtani dastlabki ishlash texnika va texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha keng miqyosda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish asosida energiya-resurstejamkor texnika va texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida paxta bo'yicha xalqaro konsultativ qo'mita (ICAC) ma'lumotlari ko'ra 2022 yilda 26,5 mln. paxta tolasini ishlab chiqarilishini hisobga olsak, paxta tolasini tarkibidagi iflosliklardan tozalash uchun samarali, energiya va resurstejamkor mashinalarini amaliyotga joriy etishni taqozo etmoqda¹. Shu jihatdan paxta tozalash korxonalarida va ip-yigiruv jarayonlarida tola yo'qolishini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada paxta va tola tozalashda tolali materiallarni chiqindiga tushishini minimallashtiruvchi samarali tozalash texnologiyasi va uskunalari takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda paxtani dastlabki ishlash texnika, texnologiyasi va ularning ilmiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan paxtani tozalash uskunasi takomillashtirish asosida tozalash samaradorligini oshirish, tola sifatini yaxshilash bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Bu borada, jumladan paxtani tozalash uskunasi takomillashtirish asosida tozalash samaradorligini oshirish, tola sifatini yaxshilash, paxtani dastlabki ishlashni ilmiy asoslangan texnologiyasini ishlab chiqish, uskunasi ishchi qismlar ko'rsatkichlarini aniqlash va ularni muqobillashtirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda paxta-to'qimachilik klasterlarini keng qamrovda tashkil etilishi natijasida yuqori sifatli yigirilgan ip va to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun to'qimachilik korxonalarini texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilish bo'yicha keng qamrovli chora tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, "Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini 1,4 barobarga oshirish" bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, paxtani yirik iflosliklardan tozalashda chiqindiga tushgan paxtani regeneratsiya qilinishida iflosligi yuqori bo'lgan paxta ajratib olinib, uni qayta ishlashda standart talablariga javob beradigan tola ishlab chiqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2021 yil 16 noyabrdagi PF-14 son "Paxta to'qimachilik klasterlari to'g'risida"gi farmoni, 2020 yil 6 martdagi PQ-4633-son "Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 iyundagi VM-398-son "Paxta xomashyosini yetishtirish va qayta ishlash korporatsiyalari faoliyatini

¹ Cotton: World Statistics. <https://www.statista.com>; <http://www.ICAC.org>.

tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishi ning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Energetika, energiya resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Paxtani tozalash texnologiyasi va uskunalari takomillashtirish va mashinalarni ishlab chiqish va tadqiq etish bilan xorijda ilmiy tadqiqot institutlari, kompaniyalari, jumladan “Continental Eagle Corporation”, “Platt Lummus”, “Continental Murray” AQSH, “Cotton research and development Corporation” (Avstraliya), “China Cotton Industries limited”, “London Golden Lion”, “Cotton Research Institute of Nanjing Agricultural University” “Lebed” (Xitoy) hamda olimlar Hardin, R.G., Barnes, E.M., Valco, T.D., Martin, V.B., Clapp, D.M. F.A.Saadi va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan.

Respublikamizda paxtani yirik iflosliklardan tozalash jarayonida chiqindiga tushishiga oid yo‘nalishlar bo‘yicha tadqiqotlar bir qator olimlar jumladan R.Z.Burnashev, Y.F.Budin, A.Y.Lugachev, S.A.Samandarov, A.D.Sapon, Sh.Sh.Xakimov, A.J.Jo‘rayev, A.Muratov, B.M.Mardonov, A.P.Parpiyev, B.N.Yakubov, S.Fozilov, R.X.Rasulov va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Mazkur tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan paxta tozalash uskunalari, ularni asosiy ishchi qismlari nazariy va amaliy asoslangan. Lekin erishilgan natijalarga qaramasdan paxtani yirik iflosliklardan tozalash jarayonida uni chiqindiga tushishi va regeneratsiya qilingan paxtani tozalash jarayoniga asoslangan tadqiqotlar yetarlicha o‘tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining № OT-A3-09 “Paxtani quritish va tozalash samaradorligi yuqori bo‘lgan resurstejamkor yangi texnologik uskunasi ishlab chiqish” loyiha mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tozalash agregatida ajralib chiqayotgan mayda va yirik iflosliklarni alohida taqsimlash jarayonini takomillashtirish asosida samaradorlikni oshirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

tozalash jarayonida ajralgan paxtali chiqindini miqdori va fraksiya tarkibini tahlil qilish;

tozalash jarayonida chiqindiga paxta tushishini nazariy tahlil qilish;

UXK tozalash oqimida chiqindiga tushayotgan paxta iflosligini kamaytirish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish va iflosliklarni uzatish tizimini aerodinamik hisobini amalga oshirish;

tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishda tajriba sinovini o‘tkazish va iqtisodiy samaradorlik hisobini amalga oshirish.

Tadqiqotning obykti sifatida paxtani mayda va yirik iflosliklardan tozalashning texnologik uskunalari va ajralgan iflosliklarni uzatish vositalari olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida paxtani tozalash va ajralgan ifloslikni uzatish jarayonlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy mexanika, iplar mexanikasi, differensial tenglamalarni yechishning analitik va sonli usulda tajriba natijalarini matematik statistik qayta ishlashning bir faktorli kichik kvadratlar usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paxtani yirik iflosliklardan tozalashda chiqindi tarkibidagi ahamiyatli darajada ulushga ega bo'lgan va paxtadan ajralishi qiyin bo'lgan tola bo'laklari, ulyuk va mayda iflosliklardan iborat bo'lgan chigallashgan birikma hosil bo'lishi aniqlangan;

qoziqchali va arrachali barabanlardan tushayotgan iflosliklarni alohida ajratish hisobiga regeneratsiyalanadigan paxtaning ifloslik miqdorini kamaytirish natijasida takomillashtirilgan tozalash texnologiyasi ishlab chiqilgan;

bir faktorli tajriba natijalarini qayta ishlash usuli asosida arrachali barabanlarda ajralayotgan ifloslikni tuzilma tarkibini ulushlari, uni miqdori bilan paxtani boshlang'ich iflosligi va tozalash qaytaligi o'rtasidagi bog'lanishlar olingan;

nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida paxta bo'lagini tashqi kuchlar hisobiga deformatsiyalanib cho'zilishi va maksimal chegaraviy uzunlikdan so'ng elementar bo'laklarga ajralishini paxta bo'lagidagi chigitlar orasidagi boshlang'ich uzunlikga bog'liq ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

arrachali barabanlar seksiyasini takomillashtirish natijasida qoziqchali va arrachali barabanlardan tushayotgan iflosliklarni alohida ajratish imkoniyati yaratilib, chiqindi tarkibidagi paxta iflosligini kamaytirishga erishilgan;

qoziqchali va arrachali barabanlardan ajralayotgan mayda va yirik iflosliklarni alohida uzatish variantlari ishlab chiqilgan;

paxtadan ajralishi qiyin bo'lgan tola qismlari va mayda ifloslikdan iborat bo'lgan birikmalarni paxta tarkibiga qo'shilishi bartaraf etilgan;

regeneratsiyalangan paxtadagi mayda ifloslikni kamaytirish hisobiga, ulardan sifatli tolalar olish imkoniyati yaratilgan;

Tadqiqot natijalarini ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy usul va o'lchash vositalaridan foydalanilgan holda o'tkazilganligi, tajribaviy tadqiqotlarda matematik statistik qayta ishlovlar 95 % ishonchlilik darajasi bilan amalga oshirilganligi, paxta va tolani sifat ko'rsatkichlari standart metodikalar bilan aniqlanganligi, olingan natijalarni real iqtisodiy samara bilan amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Natijalarni ilmiy ahamiyati paxta bo'laklarini tashqi kuch ta'sirida deformatsiyalanishi va normal kuchlanish o'rtasidagi bog'lanishlarni olinishi, paxta bo'laklarini maksimal uzilish uzunliklarini aniqlanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini amaliy ahamiyati arrachali baraban bo'limlarini takomillashtirilganligi va amaliyotga joriy etish natijasida regeneratsiya qilingan

paxtadan yuqori sifatli tola olish imkoniyati yaratilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Bajarylган ilmiy tadqiqot ishi natijasida takomillashtirilgan tozalagichlarni arrachali baraban bo'limidagi qoziqchali barabanlardan ajralib chiqayotgan mayda ifloslikni alohida ajratish bo'yicha olingan natijalar asosida:

takomillashtirilgan tozalagich Paxta-to'qimachilik klasterlari uyushmasining tasarrufiga kiruvchi "APK BUKA" MCHJ klaster tarkibidagi Bo'ka paxta tozalash korxonasida va "SANGZOR TEKSTIL" MCHJ klasteriga qarashli Do'stlik paxta tozalash korxonasida tadbiiq etilgan (O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari uyushmasining 2023 yil 24 noyabrda 03/22-910-son ma'lumotnomasi). Natijada ishlab chiqarilgan tolada 6,64 % nuqson va iflos aralashmalar mavjud variantda, 6,64 % bo'lib IV-nav "O'rta" sinfga to'g'ri kelsa, tavsiya variantida 5,4 % ni tashkil etib, IV-nav "Yaxshi" sinfli tola olingan. Tozalagichlarni arrachali baraban bo'limlaridan chiqindiga tushgan paxtani regeneratsiyalash va tozalash hisobiga tola sinfi yaxshilanishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 11 ta respublika ilmiy amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola jumladan 5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi keltirilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Muammoni holati va adabiyotlar tahlili**" deb nomlangan birinchi bobida paxtadagi iflos aralashmalar tarkibi va ularni ajratish texnologiyalari keltirilgan bo'lib, paxtani yirik iflosliklardan tozalash jarayonida paxta bo'laklarini ifloslik bilan birga tushishi va ularni regeneratsiya qilingandan keyingi iflosligi yuqori ekanligi ularni tozalanish samaradorligi yetarli bo'lmaganligi sababli o'ta past sifatli tola olinayotganligi hamda ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarni tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tozalash uskunalaridan chiqindiga tushgan paxtalarni regeneratsiyasi va tozalashni nazariy va amaliy tadqiqoti**" deb nomlangan ikkinchi bobida chiqindiga tushgan paxtani regeneratsiyasi va tozalanishini mavjud holati tahlil qilingan, tozalash jarayonida chiqindiga paxta tushishida uni

deformatsiyalanishi hamda arrachali baraban seksiyasidan ajralgan chiqindi miqdori va tarkibi nazariy va amaliy o'rganilgan. Yirik iflosliklardan tozalash seksiyasini takomillashtirilgan sxemasi berilgan.

Tahlillar arrachali seksiyalardan ajralib chiqqan paxtali iflosliklar miqdori tozalash ketma-ketligiga qarab pasayib borishi, tozalanayotgan paxta iflosligi oshgan sayin ajralgan ifloslik miqdori ham oshib borishini ko'rsatdi.



a) umumiy chiqindi

b) chanoq

v) g'o'za bargi

g) tolali chigallashgan ifloslik

d) paxta

y) mayda ifloslik

1-rasm. Arrachali seksiyadan ajralib chiqqan iflosliklar tarkibi

1-jadval

Do'stlik paxta tozalash korxonasida UXK tozalash oqimini arrachali baraban seksiyalaridan ajralib chiqqan chiqindilar miqdori

t/r	Arrachali seksiyalari	Paxta ko'rsatkichlari								
		Buxoro -102, I/II, qo'l terim, W=9,8 %, 3=9,6 %, Q=3360 kg/soat			An-Bayaut, IV/III, mashina terimi, W=12,7 %, 3=19,8 %, Q=4752 kg/soat			An-Bayaut, III /3, qo'l terim, W=11,4 %, 3=15,4 %, Q=3640 kg/soat		
		Chiqindi ogirligi, kg/soat	Ulushi %	Paxtaga nisbatan ulushi, %	Chiqindi ogirligi, kg/soat	Ulushi %	Paxtaga nisbatan ulushi, %	Chiqindi ogirligi, kg/soat	Ulushi %	Paxtaga nisbatan ulushi, %
1	1-arrali seksiya	92	41,82	2,74	305,4	51,05	6,43	182,8	47,1	5,02
2	2-arrali seksiya	76	34,55	2,26	173,4	28,99	3,65	117,2	30,2	3,22
3	3-arrali seksiya	52	23,63	1,55	119,4	19,96	2,51	88,5	22,7	2,42
4	Ja'mi	220	100	6,55	598,2	100	12,59	388,1	100	10,66

1-rasmda arrachali seksiyalardan ajralib chiqqan chiqindilar ko'rinishi keltirilgan bo'lib, ularni tarkibida yirik va mayda iflosliklardan tashqari kalta va erkin tola, ulyuk hamda mayda ifloslikdan iborat chigallashgan toifasi mavjudligi aniqlandi. Ushbu toifa ifloslik qoziqchali barabanlarda tozalanishi qiyin hisoblanadi. Ularni ajralgan ifloslikdagi ulushi 12,67 % dan 14,2 % gacha bo'lishi aniqlandi.

2-3-rasmlarda bir qator paxta tozalash korxonalarida UXK tozalash majmuasining arrachali barabanlar seksiyada ajralib chiqqan ifloslik tarkibi va ulushlari keltirilgan bo‘lib, unda ifloslikdagi paxta ulushi 20,49 % dan 58,83 % ni, yirik iflosliklar esa 29,08 % dan 34,95 % ni tashkil etishi aniqlandi.

Do‘stlik paxta tozalash korxonasida o‘tkazilgan tajribalarda (1-jadval) birinchi arrachali barabanlarda ajralgan ifloslik, umumiy ajralgan ifloslikga nisbatan 41,82 % dan 51,05 % ni, tozalangan paxtaga nisbatan 2,74 % dan 6,43 % bo‘lgan. Qolgan arrachali barabanlarda pasayib borishi kuzatilgan.

2-rasmda ajralgan ifloslik miqdori va paxtaga nisbatan ulushini paxtani boshlang‘ich iflosligiga qarab o‘zgarish grafiklari keltirilgan. Ularni regressiya tenglamalari quyidagi kurinishga ega bo‘ldi.


Ifloslik miqdori:

$$y_1 = 3,15 x^2 - 49,84 x + 408,2$$


Ifloslikni paxtaga nisbatan ulushi:

$$y_2 = 0,0017 x^2 + 0,55 x + 1,112$$

bunda, x -paxtani boshlang‘ich iflosligi, %



1-Ajralgan ifloslik miqdori; 2-Ifloslikni paxtaga nisbatan ulushi
2-rasm. Ajralgan ifloslik miqdori va ulushini paxta iflosligiga bog‘liqlik grafigi



1-umumiy ifloslik; 2-paxta; 3-yirik ifloslik; 4-mayda ifloslik.
3-rasm. UXK arrali barabanlari seksiyasidan ajralgan iflosliklar tarkibi

Ajratilgan iflosliklar tarkibidagi paxtani umumiy tozalanayotgan paxtaga nisbatan ulushlari ham har xil bo‘lib, 1,44 % dan 4,19 % gacha miqdorni tashkil etdi.

Bir qator tadqiqotlarda paxta bo‘lagi kolosniklar ta‘sirida deformatsiyalanib, ya‘ni cho‘zilish so‘ngra uzilishi natijasida paxta bo‘laklarini ifloslikga tushishi xulosa qilingan.

Ma‘lumki, paxtani bir chigitli bo‘laklarga ajralib ketishi unda murakkab kuchlanganlik holatlarini yuzaga keltiruvchi tashqi kuchlar ta‘sirida amalga oshadi.

Ushbu masalaga aniqlik kiritish uchun ikki chigitdan iborat paxta bo‘lagini cho‘zuvchi kuch ta‘sirida bir chigitli paxtaga ajralishi mexanizmlari, ularda hosil bo‘ladigan deformatsiyalarni analitik tahlili o‘tkazildi hamda paxtadagi normal kuchlanish bilan deformatsiya o‘rtasidagi bog‘lanishlar aniqlandi.


Tahlillar paxta bo‘lagidagi normal kuchlanish va cho‘zilish deformatsiyasini hisoblash uchun tola tutamidagi o‘zaro ilashgan

ko‘ndalang kesim yuzasi S_0 va uni diametrlari (5-rasm) hamda maksimal cho‘zilish uzunligini aniqlash kerakligini ko‘rsatdi.

Tolalardagi hosil bo‘ladigan normal kuchlanish va deformatsiya \mathcal{E} quyidagi formulalar yordamida aniqlandi

$$\sigma = \frac{G}{S_0} \quad (1) \quad \text{va} \quad \varepsilon = \frac{L_1 - L_0}{L_0} \quad (2)$$


bunda G -paxtaga ta‘sir etuvchi tashqi kuch; S_0 -chigitlar orasidagi o‘zaro ilashgan tola tutamini ko‘ndalang kesim yuzasi; L_0 va L_1 – tola tutamini dastlabki va G -kuch ta‘siridan keyingi uzunligi, mm.



5-rasm. Ikki chigitni o‘zaro birikish sxemasi

Tola tutamidagi tolalarni umumiy yuzasi S_{il} dan tashqari ilashmagan va uzilgan tolalar yuzasi S_u va bo‘shliq yuzasi S_B bo‘lib, ular cho‘zilishda ishtirok etmaydi. Shu sababli tola tutumidagi yuzasi S_0 ni haqiqiy qiymati quyidagicha topiladi.

$$S_0 = S_{um} - S_U - S_B \quad (3)$$



4-rasm. Tozalash jarayonida chiqindiga tushgan paxta ulushi

Tola tutamini umumiy yuzasi S_M doira shaklida bo'lib, $S_{um}=0,785 d^2$ yordamida aniqlanadi. (bunda d- tola tutami diametri).

Agar $S_u=q_1S_0$ va $S_B=q_2S_{um}$ deb olsak

$$\text{unda } S_0 = \frac{S_{um}(1-q_2)}{1-q_1} \quad (4) \quad \text{va } \sigma = \frac{G1+q_1}{S_{um}(1-q_2)} \quad (5) \quad \text{bo'ladi}$$

bunda q_1 -ilashmagan va uzilgan tolalar yuzasini tolalarni S_0 umumiy yuzasi ga nisbatan ulushi, q_2 - tola tutamidagi bo'shliq yuzasini S_{um} yuzaga nisbatan ulushi.

Kuchlanish va deformatsiyani aniqlash maqsadida paxta bo'lagidagi chigitlar oraliq masofasi $L=15-20-25-30$ mm bo'lgan namunalar olinib turli og'irlik ta'sirida cho'zilish deformatsiyasi o'rganildi.

Buning uchun 10 tadan paxta namunalari o'lchamli shtativga osilib pastki qismiga turli og'irlikda toshchalar qo'yilib, chigitlar oraliq masofasini o'zgarishi o'lchandi. Tajriba natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

Natijalar o'zaro tolalar orqali birlashgan chigitlarni mexanik ta'sir hisobiga uzilish uzunligi chigitlarni boshlang'ich oraliq masofasiga bog'liq emasligi va 37-38 mm ni tashkil etishini, chigitlar oraliq masofasi oshgan sayin cho'zilishga sarflanadigan kuch va deformatsiya qiymati kamayib borishi kuzatildi. Jumladan, chigitlar oraliq masofasi $L_0=15$ mm bo'lganda, $\varepsilon=1,57$ mm, $L_0=30$ mm bo'lganda $\varepsilon=0,28$ ga teng bo'ldi.

Paxta namunasida tola tutami diametri 6 mm bo'lganda, uni umumiy yuzasi $0,283 \cdot 10^{-4} \text{ m}^2$ ilashgan tolalar yuzasi $0,0639 \cdot 10^{-4} \text{ m}^2$ bo'lib uni ulushi 22,5 % ni tashkil etadi. Tola tutamini uzilishdan oldingi diametri 2,3 dan 3,2 mm gacha bo'lib, ularni uzish uchun katta kuch talab etilmaydi. Uzilish ko'paygan sayin paxta bo'laklarini ifloslikga tushishi oshadi.

O'tkazilgan tadqiqotlardan kelib chiqqan holda UXK tozalash oqimi o'zgartirildi. 6-rasmda takomillashtirilgan UXK varianti keltirilgan. Unda arrachali baraban seksiyasidagi 4 ta qoziqchali barabanlardan tushayotgan ifloslik alohida tarnovlar yordamida ajratilib tozalagichdan chiqariladi. Qoziqchali barabanlardan ajralgan iflosliklar ikki xil variantda tozalagichdan chiqarilishi mumkin.

2-jadval

Paxta bo'lagidagi chigitlarni boshlang'ich oraliq masofasini deformatsiyalanishga ta'siri

t/r	Chigitlar oraliq masofasini o'zgarishi									
	Boshlang'ich oraliq $L_0=15\text{mm}$					$L_0=20\text{mm}$				
	L mm	Yuk og'irli gi G, gr	ΔL mm	Deforma siya, ε	Chigitlar oralig'idagi tola qatlami diametri mm, d_t	L mm	G, gr	ΔL mm	ε	d_t mm
1	17,0	10	2,0	0,13	6,1	21,5	10	1,5	0,08	5,8
2	18,5	20	3,5	0,23	5,7	23,0	20	3,0	0,15	5,4
3	21,6	30	6,6	0,44	5,4	26,5	30	6,5	0,33	5,0
4	25,8	40	10,8	0,72	4,8	32,4	40	12,4	0,62	4,5
5	32,5	50	17,5	1,16	3,5	34,5	50	14,5	0,73	3,3
6	35,6	60	20,6	1,37	3,0	37,0	65	17,0	0,85	2,7
7	38,5	71	23,5	1,57	3,2	37,9	65	17,9	0,90	2,5


t/r	Chigitlar oraliq masofasini o'zgarishi									
	$L_0=25\text{mm}$					$L_0=30\text{mm}$				
	L mm	G, gr	ΔL mm	\mathcal{E}	d_t	L mm	G, gr	ΔL mm	\mathcal{E}	d_t mm
1	26,5	10	1,5	0,06	4,7	31,0	10	1,0	0,03	4,6
2	27,5	20	2,5	0,10	4,4	32,5	20	2,5	0,08	4,2
3	31,0	30	6,0	0,24	4,0	33,0	30	3,0	0,1	3,8
4	33,5	40	8,5	0,34	3,2	34,2	40	4,2	0,14	3,5
5	35,0	50	10,0	0,40	2,8	35,5	47	5,5	0,18	3,1
6	36,5	58	11,5	0,46	2,5	36,5	-	6,5	0,22	2,9
7	37,7	-	12,7	0,51	2,3	38,4	-	8,4	0,28	2,4

Birinчисida har seksiyadan tushayotgan mayda ifloslik havo yordamida mavjud aspirasiya tizimidan foydalangan holda tozalagichdan chiqariladi (6-rasm).


Ikkinchi variantda arrachali barabanlardan pastroqda ifloslikni chiqaruvchi-uzatuvchi lentali transportyor o'rnatilib, unga barcha qoziqchali barabanlardan chiqayotgan iflosliklar varonka shaklidagi tarnovlar yordamida uzatiladi.

Tavsiya etilgan tozalash variantini paxta tozalash korxonalarida tajriba sinovi o'tkazildi. Buning uchun mavjud variantda va arrachali barabanlar seksiyasida qoziqchali barabanlar tagiga alohida tunuka bilan to'sib ifloslikni alohida tushirildi.

1-variant



2-variant



1-ta'minlovchi valik; 2-1XK (qoziqchali tozalagich); 3-UXK arrachali seksiyasi; 4-ifloslik bunkeri; 5-ifloslik trubasi; 6-ifloslikni uzatuvchi magistral truba; 7-nazorat oynasi. 8- lentali transportyor; 9- pnevmatik truba;

6-rasm. Taklif etilayotgan paxtani tozalash texnologiyasi

Tajriba natijalari 3-4-jadvallarda keltirilgan. Ularni tahlili quyidagilarni ko'rsatdi.

3-jadval

**Arrachali baraban seksiyalaridan ajralgan iflosliklarni tuzilma tarkibi
(Porloq ½ qo'l terim, iflosligi 8,5 % namligi 7,8 %)**

Namuna-300gr

t/r	Ifloslik tuzilma tarkibi	Tuzilma tarkibi ulushlari							
		Arrachali seksiyadan keyin				Regeneratordan keyin			
		Mavjud variant		Tavsiya varianti		Mavjud variant		Tavsiya varianti	
		gr	%	gr	%	gr	%	gr	%
1	Umumiy ifloslik	300	100	300	100	300	100	300	100
2	Ajratilgan paxta	153,41	51,14	176,58	58,86	186,28	62,09	214,26	71,42
3	Yirik ifloslik	94,59	31,53	102,0	34,0	67,95	22,65	55,03	18,34
4	Tolali chiqindilar	41,78	13,90	17,22	5,74	-	-	-	-
5	Mayda ifloslik	10,28	3,43	4,22	1,40	45,78	15,26	30,71	10,24

- Qoziqchali barabanlardan chiqayotgan iflosliklarni arrachali barabanlardan ajralayotgan paxtali ifloslikga qo'shmaslik ifloslik tuzilma tarkibiga ahamiyatli darajada ta'sir etishi aniqlandi. Mavjud variantda ifloslikdagi paxta ulushi 51,14 % ni, yirik ifloslik ulushi esa 31,53 % ni tashkil etgan bo'lsa, tavsiya variantida mos ravishda 58,86 % va 34,4 % bo'lgan, ya'ni mavjud va tavsiya variantlarida chiqindidagi paxta tarkibida mos ravishda 48,86 % va 41,14 % miqdorida ifloslik bo'lgan.

- Tolali va tolasiz mayda ifloslik miqdori mavjud variantda mos ravishda 13,90 % va 3,43 % ni, tavsiyada esa 5,74 % va 1,40 % ni tashkil etgan. Tolali mayda ifloslikni 13,9 % dan 5,74 % ga kamayishiga, qoziqchali barabanda hosil bo'lgan tolali iflosliklarni paxtali ifloslikga qo'shilmaganligi sabab bo'ladi.

- Regeneratordan chiqqan paxtani tuzilma tarkibi ahamiyatli darajada o'zgarib, uni tuzilma tarkibidagi mayda va yirik iflosliklar ulushi mavjud variantda 15,26 % va 22,65 % ni, tavsiyada esa 10,24 % va 18,34 % ni tashkil etgan. Ya'ni mayda ifloslik 5,02 % ga yirik ifloslik ulushi esa 4,31 % ga kamaygan. Paxta ulushi esa 62,09 % dan 71,42 % ga oshgan, ya'ni regenerasiyalangan paxta tarkibidagi iflosliklar 47,91 % dan 30,58 % ga kamaygan.

- Regenerasiyalangan paxtani UXK tozalash majmuasida qayta tozalanganda paxtani iflosligi jin tarnovida mavjud variantda 7,52 %, tavsiyada esa 6,4 % bo'lib, ular tarkibida yirik ifloslik nisbatan ko'proq ekanligi hamda tozalagichlarni tozalash samaradorligi yetarli emasligi aniqlandi.

- Asosiy paxtani dastlabki ishlanganda ishlab chiqarilgan toladagi nuqson va iflos aralashmalar miqdori mavjud va tavsiya variantlarida mos ravishda 2,8 % (I-nav "O'rta" sinf) va 2,4 % (I-nav "Yaxshi" sinf) bo'lib, regenerasiyalangan paxtani qayta ishlash natijasida olingan tolalarda nuqson va iflos aralashmalar mavjud variantda 11,4 %, tavsiyada 9,6 % bo'lib, nostandart tola olingan (4-jadval).

Olingan barcha natijalar qoziqchali barabanlarda ajralgan iflosliklarni alohida tozalagichdan chiqarilganda tola sifati yaxshilanishini ko'rsatdi.

4-jadval

Regenerasiyalangan paxtadan olingan toladagi nuqson va iflos aralashmalar

Toladagi nuqson va iflos aralashmalar, %							
Asosiy olingan tola				Regenerasiyalangan paxtadan olingan toladagi nuqson va iflos aralashmalar			
Mavjud variant		Tavsiya varianti		Mavjud variant		Tavsiya varianti	
%	tola navi, sinfi	%	tola navi, sinfi	%	tola navi, sinfi	%	tola navi, sinfi
2,8	I-nav "O'rta"	2,4	I-nav "Yaxshi"	11,4	I-nav nostandart	9,6	I-nav nostandart

Dissertatsiyaning "**Regeneratsiyalangan paxtani tozalash samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar va aspiratsiya tizimini hisobi**" deb nomlangan uchinchi bobida UXK agregetini har bir tozalash bo'limlarini individual samaradorligini, tozalagichlarni paxta bo'yicha ish unumdorligini o'zgartirish hisobiga ishlab chiqarilayotgan tola iflosligini kamaytirish imkoniyati o'rganildi, hamda ajralgan ifloslikni uzatish tizimini aerodinamik hisobi amalga oshirilgan.

Regenerasiyadan chiqqan paxta UXK tozalash oqimida 32 tagacha qoziqchali barabanlar, to'rttagacha arrachali barabanlarda qayta tozalanishida har bir tozalash seksiyani individual samaradorligini aniqlash bo'yicha tajribalar o'tkazildi.

Shu maqsadda Bo'ka paxta tozalash korxonasida dastlabki ishlangan S65-24 1/2 qo'l terim boshlang'ich namligi 7,5 %, iflosligi 6,9 % bo'lgan paxtani ikki variantda tozalanganda, tozalagichlardan ajralgan iflosliklardan 1-PX regeneratorda ajratib olinib institut laboratoriyasida UXK tozalagich modelida tozalandi.

Regenerasiyalangan paxtani mavjud variantdagi iflosligi 23,76 % tavsiya variantida esa 20,89 % ni tashkil etgan.


UXK tozalash oqimi modeli 2 ta arrachali va 8 ta qoziqchali barabandan iborat bo'lib 3 va 4,5 tn/soat ish unumdorligida ishladi. Paxta uskunadan 2 marta o'tkazildi so'ngra ikkita qoziqchali barabanlar seksiyasida tozalandi va har bir tozalash seksiyalari tagidan ajralib chiqqan iflosliklar olinib tortildi. Tozalangan paxta laboratoriya jinida tolasi ajratilib, analizator AX-2 da tola iflosligi va nuqsonlar aniqlandi. Tolani sifat ko'rsatkichlari HVI uskunasi aniqlandi.

Olingan natijalarni tahlili quyidagilarni ko'rsatdi (6-rasm).

- Tozalagichlarni ish unumdorligi 4,5 tn/soat dan 3 tn/soat ga kamaytirilsa paxtani tozalash samaradorligi 87,19 % dan 91,86 % ga oshishi kuzatildi. Tozalangan paxtadagi umumiy, mayda va yirik iflosliklar miqdori mos ravishda 2,77 %, 1,02 %, 1,75 % dan 1,82 %, 0,62 % va 1,2 % gacha pasaygan. O'rtadagi farqlar ahamiyatli darajada.

- Tozalash oqimini oxirgi 2 ta qoziqchali baraban seksiyalarida tozalash samaradorligi 3 va 4,5 tn/soat ish unumdorligida 0,9 % va 1,25 % ni hamda 0,54 % va 0,44 % ni tashkil etgan, mos ravishda iflosliklar kamayishi birinchisida 0,2 % va


0,28 % ni hamda ikkinchisida 0,1 % va 0,12 % dan iborat bo'lgan. Natijalardan ko'rinib turibdiki 3 tn/soat ish unumdorligida olingan tola I-nav "Oddiy", 4,5 tn/soat da esa I-nav Iflos" sinfdan iborat bo'lgan. Olingan natijalar regenerasiyalangan paxtani tozalashda ish unumdorligini 3 tn/soat bo'lishi tozalash samaradorligini ahamiyatli darajada oshirishini hamda oxirgi 8 ta qoziqchali barabanlarni samaradorligi o'ta past ekanligini ko'rsatdi.



7-rasm. Ish unumdorligini tozalash samaradorligi (a) va paxtadagi qoldiq ifloslik (b) ga ta'siri

Keyingi masala qoziqchali barabanlardan ajralayotgan iflosliklarni uzatish bo'lib, mavjud aspirasiya tizimidan foydalanish ko'zda tutilgan.

Bunda ajralayotgan ifloslikni qiya yuzada to'xtab qolmay xarakatlanishi shartlarini aniqlash maqsadida ifloslikni harakat tenglamalari tuzildi (8-rasm).



8-rasm. Qiya yuzada bo'ylab harakatlanayotgan iflos aralashmalarga ta'sir etuvchi kuchlar

$$m \cdot x = F_{ish} + mg \cdot \sin \alpha \quad (6)$$

$$F_{ish} = f \cdot N = f \cdot mg \cdot \cos \alpha \quad (7)$$

$$mx = f \cdot mg \cdot \cos \alpha + mg \cdot \sin \alpha \quad (8)$$

bunda m va x - ifloslik massasi va tezlanishi, F_{ish} va f - ishqalanish kuchi va koeffitsiyenti, $f=0,46$, N - normal bosim, g - erkin tushish tezligi, α - qiyalik burchagi.

Tenglamani yechimi ifloslik harakati trayektoriyasi va tezligini aniqlovchi tenglamalarni berdi

$$l = (g \cdot \sin \alpha - f \cdot g \cdot \cos \alpha) \cdot \frac{t^2}{2} + \mathcal{G}_B \cdot t + \frac{g \cdot t^2}{2} \quad (9)$$

$$\mathcal{G}_c = (g \cdot \sin \alpha - f \cdot g \cdot \cos \alpha) \cdot t + \mathcal{G}_b \quad (10)$$


Ifloslikni B nuqtadagi tezligi $\mathcal{G} = \frac{n}{t} = \frac{0,1}{0,2} 1 \text{ m/sek}$,

$$\text{bunda } t = \sqrt{\frac{2h}{g}} = \sqrt{\frac{2 \cdot 0,2}{9,81}} = 0,2 \text{ sek, } h=0,2 \text{ m.}$$

9-rasmda qiya tarnovni BC oraliqda ifloslik tezligini vaqtga bog'liqlik grafigi keltirilgan bo'lib, unda $\alpha = 30^\circ$ burchakda ifloslik tezligi past ekanligi agar $\mathcal{G}_b = 0$ bo'lgan holatda ifloslik to'xtab qolishi ehtimoli mavjudligi $\alpha = 45^\circ$ va 60° bo'lganda esa ifloslik tezliklari qoniqarli holatda o'sib borishi kuzatildi.

Ma'lumki, qiya tekislikda ifloslikni harakatlanishi qiyalik burchagi α ni ifloslikni tabiiy og'ish burchagi β dan katta bo'lsagina mumkin bo'ladi.

Shu sababli ifloslikni tabiiy og'ish burchagi β ni aniqlash uchun ifloslikni titilgan holda tepadan tashlab uyum hosil qilinib, uni og'ish burchagi aniqlandi (10-rasm).



1- $\alpha_1 = 30^\circ$; 2- $\alpha_2 = 45^\circ$; 3- $\alpha_3 = 60^\circ$

9-rasm. BC oraliqda iflosliklar tezligini vaqtga bog'liqlik grafigi



10-rasm. Mayda ifloslikni tabiiy og'ish burchagi

Ifloslikni tabiiy og'ish burchagi $\beta = 42^\circ$ ni tashkil etdi. Nazariy tahlil va tajriba natijalaridan kelib chiqqan holda tarnovni qiyalik burchagini $\alpha = 50^\circ$ deb qabul qildik. Bunda ifloslik tarnovi va arrachali baraban qobig'i oralig'i 70 sm. ni tashkil etadi va joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Dissertatsiyada ifloslikni havo yordamida uzatish tizimini aerodinamik hisobi amalga oshirilib, havo sarfi, bosimi yo'qotilishi aniqlandi va ventilyator tanlandi.

Dissertasiyaning **“Takomillashtirilgan tozalagichning ishlab chiqarishdagi tajriba sinovi va iqtisodiy samaradorlik hisobi”** deb nomlangan to'rtinchi bobida tavsiya qilingan takomillashtirilgan UXK tozalash oqimini ishlab chiqarish sharoitida Bo'ka va Do'stlik paxta tozalash korxonalarida tajriba sinovlarini natijalari bayon etilgan.

5-6-jadvallarda Bo'ka paxta tozalash korxonalarida olingan natijalar keltirilgan.

Iflosliklar va paxta asosan birinchi arrachali barabanda ajratilib umumiy miqdorlariga nisbatan mavjud variantda mos ravishda 57,81 va 70,68 % ni, tavsiya variantida esa 58,0 % va 75,1 % ni tashkil etgan (5-jadvalga qarang).

Asosiy paxtadan ishlab chiqarilgan toladagi nuqson va iflos aralashmalar mavjud va tavsiya variantlarida mos ravishda 3,98 % va 3,1 % ni tashkil etsa, regenerasiyalangan paxtani alohida UXK tozalash oqimida tozalanganda esa 8,0 % va 5,25 % ni tashkil etgan, ya'ni asosiy ishlab chiqarilgan tola mos ravishda I nav "Oddiy" va "Oddiy" sinflarga to'g'ri kelsa regenerasiyalangan va tozalangan paxtadan olingan tolalar nostandart chiqqan (6- jadvalga qarang). Ushbu natijalar tavsiya variantida tola sifati yuqori bo'lishini ko'rsatdi.

5-jadval

**Bo'ka paxta tozalash korxonasida tozalashda arrachali barabanlardan
ajralib chiqqan iflosliklarni tuzilma tarkibi
(C-6524 ½ , ko'l terimi, ish unumdorligi 3741 kg/soat)**

Tozalash seksiyalari	Ifloslikni tuzilma tarkibi ulushlari													
	Mavjud variant						Tavsiya variant							
	Ajralgan paxtali ifloslimk, %		Ajralgan umumiy ifloslik		Ajralgan paxta		Umumiy tozalangan paxtaga nisbatan regenerasiyalangan paxtani ulushi, %	Ajralgan paxtali ifloslimk, %		Ajralgan umumiy ifloslik		Ajralgan paxta		Umumiy tozalangan paxtaga nisbatan regenerasiya langan paxtani ulushi, %
	kg/soat	%	kg/soat	%	kg/soat	%		kg/soat	%	kg/soat	%	kg/soat	%	
